

**CHILLA DAVRI FIZIOLOGIYASI**

Khudayarova D.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tibbiyot fanlari doktori. Professor**

Usmonova Ch.

Xusenova Sh.

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Akusherlik va ginekologiya yo'nalishi  
1-bosqich ordinatorlari**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10906181>

**Annotatsiya:** Ushbu tezis tug'ruqdan keyin ayol va bola salomatligini saqlash uchun muhim bo'lgan chilla davri va bu davrlarda bo'ladigan o'zgarishlar haqida bayon etadi. Unda tug'ruqdan keying chilla davrida uchrashi mumkin bo'lgan nonormal holatlar asosiy muammo sifatida talqin etiladi

**Kalit so'zlar:** homila, chilla, tug'ruq, ayol, chaqoloq, gigiyena, fiziologiya, isitma, Episioliniya, kesarcha-kesish.

**Аннотация:** В данной диссертационной работе описывается период чиллы, важный для сохранения здоровья женщин и детей после родов, и изменения, происходящие в эти периоды. В ней в качестве основной проблемы трактуются аномальные состояния, с которыми можно столкнуться в период чилла после родов.

**Ключевые слова:** плод, ребенок, роды, женщина, младенец, гигиена, физиология, лихорадка, эпизиолиния, кесарево сечение.

**Abstract:** This thesis describes the chilla period, which is important for maintaining the health of women and children after childbirth, and the changes that occur during these periods. In it, the abnormal conditions that can be encountered in the chilla period after childbirth are interpreted as the main problem

**Key words:** fetus, child, childbirth, woman, baby, hygiene, physiology, fever, episiolinia, caesarean section.

O'zbek xalqi qadim qadimdan chilla vaqti va u davrda homilador ayolni asrab avaylash va turli xil nazarlardan saqlashni bilishgan va unga amal qilishgan. Bugungi tibbiyot rivojlangan zamonda ayollarni nafaqat nazardan balki uni tibbiy tomondan ham himoya qilish zarurdir. Shu asosda tug'ruqdan keyin ayol tanasi juda ko'p o'zgarishlarni boshdan kechiradi va buni davolash uchun vaqt kerak bo'ladi. Tug'ruqdan keyin bir hafta mobaynida ayolda og'riq va juda qattiq charchoq kabi ba'zi noqulayliklarni his qilishi odatiy holdir. Ammo ba'zi ayollarda tug'ruqdan keyin jiddiy, hayot uchun xavfli bo'lgan sog'liq muammolarining asoratlari bo'ladi. Agar tug'ruqdan so'ng o'zida bo'layotgan o'zgarishlarni normaldan boshqacha deb hisoblasa bu vaqtda zudlikda shifokoringiz bilan bog'lanishi zarur. Barcha ayollar tug'ruqdan keyingi parvarishga muhtoj bo'lishadi. Tug'ruqdan keyingi parvarish yangi tuqqan ayollarga tibbiy yordamidir. Ayol o'zini yaxshi his qilsada albatta shifokor nazoratida chilla davrini o'tkazishi zarur. Bu ham ona ham bola salomatligining asosidir, bundan tashqari bola sog'lom o'sib rivojlanishining nazoratidir. Tug'ruqdan keyingi parvarish juda muhim, chunki yangi onalar tug'ruqdan keyingi kunlar va haftalar mobaynida jiddiy, ba'zan esa hayot uchun xavfi bo'lgan xatarda bo'lishadi. Tug'ruqdan keyin ogohlantiruvchi belgilar Umuman olganda, jiddiy sog'liq muammolarining belgilari bo'lishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- ❖ ko'krak qafasidagi og'riqlar;
- ❖ nafas olishining qiyinlashuvi;
- ❖ isitma ko'tarilishi;
- ❖ kuchli qon ketishi va kuchli og'riq kabilar kiradi.

Agarda sizda quyidagi belgilar yoki alomatlar bo'lsa, shifokorga zudlikda murojat etish zarurdir.

Bugungi tibbiyot rivojlangan bir vaqtda tug'ruq vaqtida ayollar o'zlari tug'ishni amalga oshirilmagan vaqtda ularda bu jarayon malakali shifokorlar tomonidan keserva usulida operatsiya yo'li bilan bolani dunyoga keltirishadi. Bunda shifokor qorin va bachadonni kesish orqali chaqaloqni dunyoga keltiradi. Episioliniya tug'ruq paytida chaqaloqni tashqariga chiqarishga yordam berish uchun vaginaning ochilishida qilingan kesma oraliq yirtilishi qin va to'g'ri ichak o'rtasidagi tug'ruq vaqtidagi yirtilish hisoblanadi. Bu vaqtda tug'ruqdan so'ng ayolda siydik chiqarishda achishish yoki og'riqlar, bel yon tomonda og'riq yoki tez-tez siyishga moyillik, ko'krakdagi qizil chiziqlar yoki yangi paydo bo'lgan shishlar Sizda mustit deb ataladigan ko'krak infeksiyasi bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ravishda qorinning pastki qismida kuchli og'riq, yomon hidli videlina bo'lishi mumkin. Bular Sizda endometrit yoki bakterial vaginoz deb ataladigan infeksiya ham bo'lishi mumkin. Vaginada ma'lum bir bakteriyalar ko'p bo'lganda bakterial vaginoz sodir bo'ladi. Tug'ruqdan keyin ayolda quyidagi belgilar yoki alomatlar bo'lsa, zudlikda shifokorga aloqaga chiqish zarur hisoblanadi:

- sovqotish;
- ko'p terlash;
- tez-tez nafas olish;
- tez-tez yurak urishi;
- sarosima;
- isitma;
- kuchli og'riq va noqulaylik.

Boshqa sog'liq bilan bog'liq muammolarning belgilari: oddiy hayz ko'rishdan ko'ra og'irroq qon ketishi yoki vaqt o'tishi bilan kuchayib borayotgan qon ketishi (PPH deb ham ataladi) bo'lishi mumkin. Holat ayolda tug'ganidan keyin kuchli qon ketishi hisoblanadi. Bu bola tug'ilgandan keyin 12 haftagacha sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jiddiy, ammo kam uchraydigan holat. Oyoqlarda, ayniqsa bolder sohasida og'riq, shish, qizarish, sovqotish kabi holatlar kuzatilsa, kuchli tomir trombozi bo'lishi mumkin. Ko'rish qobiliyatining o'zgarishi, bosh aylanishi, kuchli bosh og'rig'i, o'ng qorinning yuqori qismida yoki yelkada og'riq, nafas olishda qiynalish, tez vazn ortishi yoki oyoq, qo'l yoki yuzni shishishi. Ayolda tug'ruqdan keyin preklampsiya holati bo'lishi mumkin. Bu jiddiy holat hisoblanib, ayolda yuqori qon bosimi bo'lganda va uning buyrak va jigar kabi ba'zi organlari tug'ruqdan keyin normal holatda ishlamayotganda sodir bo'ladi Ko'krak qafasidagi og'riq, yo'tal bo'lsa, o'pka emboliyasi bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida ayol organizmi chilla davrida o'zini va farzandini noqulay sezishga sabab bo'ladigan patologik holatlarga duch kelsa bu holatlarda o'z holicha ish ko'rmasdan akusher-gnikologga uchrashishi va shaxsiy hamda umumiy gigiyena qoidalariga rioya etishi kuchli depresiyadan saqlanishi ham o'z ham ona salomatligi uchun muhimdir.

**References:**

1. Ya.N.Allayarov akusherlik va ginekologiya kitobi 55-65 betlardan
2. M. F Ziyayeva, G. X. Mavlyanova ginekologiya kitobi 2018 14-19 betlar
3. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
4. <https://www.savol-javob.com/hayz-haqida-toliq-malumat/>
5. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
6. Med24.uz